

**XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA AFG’ONISTON MAVZUSINI
YORITISHDA SKARABEY TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING
SAMARALI USULLARI**

Ahmadov Ahmadjon Asror o’g’li

Osiyo Xalqaro Universiteti “Tarix va filologiya” kafedrasi katta o’qituvchisi t.f.f.d. (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14209572>

Annontatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Afg’oniston mavzusidagi dars jarayonini o’quvchi yoshlarga yuqori saviyada tashkil etish uchun qo’llaniladigan skarabey texnologik metodining samarali usullari ochib berilgan.

Kalit so’zlar: Skarabey, metod, pedagok, texnologiya, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyat, Afg’oniston, Dyurand, bitim, Gandamak.

**EFFECTIVE METHODS OF USING THE SCARAB TECHNOLOGY IN COVERING
THE SUBJECT OF AFGHANISTAN AT THE END OF THE 19TH - EARLY 20TH
CENTURY**

Abstract. This article reveals the effective methods of the scarab technological method, which was used to organize the teaching process on the topic of Afghanistan at a high level for young students at the end of the 19th century - the beginning of the 20th century.

Keywords: Scarab, method, pedagogue, technology, brainstorming, working in small groups, logical thinking, problem situation, Afghanistan, Durand, deal, Gandamak.

**ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИИ СКАРАБЕЯ В
ОСВЕЩЕНИИ ТЕМАТИКИ АФГАНИСТАНА КОНЦА XIX - НАЧАЛА XX ВЕКА**

Аннотация. В данной статье раскрываются эффективные приемы технологического метода «Скарабей», который использовался для организации учебного процесса по теме «Афганистан» на высоком уровне для студенческой молодежи в конце XIX – начале XX века.

Ключевые слова: Скарабей, метод, педагог, технология, мозговой штурм, работа в малых группах, логическое мышление, проблемная ситуация, Афганистан, Дюран, сделка, Гандамак.

Bugungi kunda davlatimizning har tomonlama rivojlanib boroyotganligi, jahoning eng yirik davlatlar qatoriga chiqib borayotganli kishini quvontiradi. Shunday ekan dunyoning rivojlangan davlatlarining rivojlanish tendensiyasini o’rganish ulardagi yutuqlarni yurtimizda joriy etish qo’ylgan iqtisoy, ijtimoiy, va siyosiy sohalardagi kamchiliklaridan xulosa chiqarish

bizning bugungi kundagi asosiy vazifalarimizdan hisoblanadi. Shunday ekan ta’lim sohasida ham xalqaro tajribalardan foydalanilgan holda yangi-yangi metodlar asosida dars jarayonlarini tashkil etish kerakligi dorzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Davlatimizda bu borada keng imkoniyatlar yaratib berayotganligi oliy ta’limda, texnikum va maktablar binolarining yangidan barpo etilayotganli, dars jarayonini tashkil etish uchun zamonaviy texnologik vositalarning ko’plab miqtorda ajratilishi kabilar ahamiyatga molik hisoblanadi. Buning natijasida har bir pedagok dars jarayonlarida zamonaviy ilm fan yutuqlaridan foydalanishi, yengi metodlarni qo’llay olishi muhim vazifalardan qatoridan joy olgan.

Shulardan kelib chiqib, yoshlarimizni muammoli vaziyatlarda mantiqiy fikrlash, ochiq va erkin o’z nutqini ifodalashda Skarabey texnologiyasidan ham foydalanish samarali hisoblanadi.

Aynan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Afg’oniston tarixini o’tishda ushbu metod samarali hisoblanib, mavzu o’quvchilarning xotirasida tezda muhrlanishiga yordam beradi.

“Skarabey” interaktiv texnologiya bo’lib, u o’quvchilarda fikriy bog’liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o’z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o’quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o’rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g’oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog’liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi[1].

“Skarabey” texnologiyasi har tomonlama bo’lib, undan o’quv materialining turli bosqichlarini o’rganishda foydalaniladi. Masalan:

1. Boshida – o’quv faoliyatini rag’batlantirish sifatida («Aqliy hujum»);

Bunda Afg’oniston tarixining o’tgan asrlar bosqichidan savollar berilib, mavzuning keng qamrovli bo’lishini ta’minlaydi. Buning natijasida o’quvchilar XIX asr Afg’oniston tarixini o’rganishda qiyinchilikka uchramay mavzu mohiyatini tezda anglaydilar. Misol uchun Afg’onistonda davlatchilik asoslari qachon paydo bo’lgan edi? Durroniyalar sulolasini qanday barham topdi? Nima uchun Buyuk Britaniya Afg’onistonni bosib olishga yoki o’ziga vassal davlatga aylantirishga erisha olmadidi? Amir Do’stmuhammad Buyuk Britaniya va Rossiyaga nisbatan qanday siyosat yuritgan edi?[2] O’quvchilar mazkur savollarga guruhlarga bo’linib javob beradilar va Afg’oniston tarixining o’tgan asrlar davri yodga solinadi.

2. Mavzuni o’rganish jarayonida – uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o’rganish, yangi jihatlarini ko’rsatish;

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Afg'oniston tarixini o'rganishda e'tiborga molik masala qo'shni davlat ekanligi. Bu davrda bizda Buxoro amirligi davlati (1756-1920-yy) mavjud bo'lib ikki davlat o'rtaida siyosiy, iqtisodiy, savdo, madaniy aloqalarning mavjud bo'lganli.

Bunda qo'shimcha ma'lumot sifatida Afg'onistonning Buxoro amirligi bilan munosabatlari haqida ham fikr bildirish[3] mavzu mohiyatini yorishda chuqurroq yondashilganligini anglatadi. Keyingi masala aynan Afg'oniston masalasida nega ikki mustamlakachi davlatlar Buyuk Britaniya va Rossiya birdek kurashdi? Ikkinci ingliz-afg'on urushida ham afg'onlarning g'alabasi nimalar sabab bo'ldi?[4] Nega Rossiya O'rta Osiyo xonliklariga hujum qilganda biz g'alaba erisha olmadik? Kabi jihatlarni qiyosiy tahlil qilish, Afg'onistondagi ichki nizolar sabablari, oqibatlari va natijasi nimalardan iborat bo'ldi? Amir Abdurahmonning Dyurand bitimini imzolashi nimalar sabab bo'ldi? Buxoro amirligi va Rossiya o'rtaida imzolangan bitim bilan bu bitim qanday jihatlar bilan farqlanadi? Habibulloxon davrida Afg'oniston[5] va Amir Abdulahad davrida Buxoro amirligi qanday siyosat suritdi va buning tanqidiy jihatlari haqida fikrlar berilsa mavzuning xarakteri to'liq ochib beriladi.

3. Oxirida – olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida.

“Skarabey” texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

Mavzuni o'quvchilarga oson qabul qilish uchun qiyosiy tahlil qilish yaxshiroq samara berib, aynan Afg'onistonning Buxoro amirli bilan solishtirish, hukmdorlar faoliyatini tadqiq etish[6], ikki davlat hukmdorlarining elchilik aloqalari hamda ayrim hukmdorlar taqdiri Buxoro yoki Afg'oniston bilan bog'langanligi (mazkur hududda yashaganligi) kabilar o'quvchilarning mavzuni chuqurroq bilish xususiyatiga ijobiy ta'sir qiladi.

“Skarabey” alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanishi mumkin. Ta'limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagи qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o'zgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;

- imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;
- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- «men»ligini ifodalashga imkon beradi;
- o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish uyg'otadi[7].

Asosiy tushunchalari quyidagilar:

- Assotsiatsiya – mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g'oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.
- Ranjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash [8].

Xulosa qilib aytda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Afg'oniston mavzusini o'tishda Skarabey texnologiyasi muhim metod sanaladi. Shu sababdan bugungi kunning har bir tarixchisi mazkur darsni o'tishda Skarabey texnologiyasidan qanchalik unumli foydalansa yoshlarimizda mavzuga oid chuqurroq bilim ko'nikmasi ortadi. Yoshlarimizda bilim qancha ko'p bo'lsa, ularda fikrlash qobiliyati ham yaxshilanadi, bitta masalaga mulohaza bilan yondashish ko'nikmasi shakllanadi, shuningdek o'z fikrini mantiqiy izchilikda bayon qilish qobiliyani ham o'stirgan bo'lar edi.

REFERENCES

1. Ziyonet.uz
2. Farmonov R., Jo'rayev U., Ergashev Sh. Jahon tarixi. T., 2019-yil, B.148-150.
3. Ergashev J Buxoro va Afg'oniston: aloqalarning diplomatik tarixiy tarixiy tajribasi (XX asr boshi) Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonalardan hozirgacha).-Buxoro., 2016.
4. Mannonov A.M., Abdullayev N.A., Rashidov R.R Afg'oniston tarixi (o'quv qo'llanma) T., 2018.
5. Lafasov M., Jo'rayev U., Xoliquov E., Qodirova D. Jahon tarixi. T., 2019-yil, B.108-111.
6. Hayitov Sh.A., Sh.M. Mirzoev Afg'oniston tarix ko'zgusida. Monografiya. "Durdon", Buxoro, 2018-yil.
7. <https://hozir.org/pedagogik-psixologik>.
8. Азизходжаева Н.П педагогические технологии и педагогическое мастерство. Т., 2006 г.
9. Asror o'g'li, A. A. (2024). PRINCE OF AFGHANISTAN ISAK KHAN ORIENTALIST DN IN THE INTERPRETATION OF LOGOPHET. *Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science*, 2(5), 82-85.

10. Asror o'g'li, A. A. (2022). History of Afghanistan-Bukhara Relations in the Process of Incorporation of Bukhara Emirate into Russian Customs System. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 339-342.
11. Hayitov, S. (2023). XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDAGI TURKMANLAR ETNOGRAFIYASIGA OID AYRIM MA'LUMOTLAR SHARQSHUNOS DN LOGOFET TALQINIDA. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 43(43).
12. Zaripov J. G., Akhmadjon A. A. THE ROLE OF AFGHANISTAN IN DIPLOMACY OF BUKHARA EMIRATE (XVIII-XIX CENTURIES) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 3. – №. 2. – С. 226-230.
13. Shahrillo, S. N. (2024). INDEPENDENT WORK FORMES THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF A FUTURE TEACHER. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(3), 23-26.
14. Asror o'g'li, A. A., & Farruxbek, N. (2024). FARG 'ONA VODIYSIDAGI ILK SHAHARSOZLIK MADANIYAT (CHUST MISOLIDA). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 45(5), 88-91.
15. Asror o'g'li, A. A. (2024). BUXORO VOHASIDAGI VARDONZE QO 'RG 'ONINING ANTIK VA O 'RTA ASRLAR DAVRI TARIXI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 45(5), 84-87.
16. Ahmadov, A. A., & qizi Rasulova, M. M. (2023). BUXORO YAHUDIYLARINING MILLIY BAYRAM VA MAROSIMLARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(10), 373-376.
17. Шарипова Н. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АНГЛИЦИЗМОВ В РАЗНЫХ ЖАНРАХ СМИ //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 57-59.
18. To'rayev, A. (2023). O'ZBEKLARNING CHORJO'YDAGI HAYOT YO'LLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 36(36).
19. To'rayev, A. (2023). БУХРОДАГИ ТУРКМАНЛАРИНИНГ АЪНАВИЙ ТУРАР ЖОЙЛАРИ ВА УНДАГИ ЗАМОНАВИЙ ЎЗГАРИШЛАР. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 35(35).
20. To'rayev, A. (2023). English Buxorodagi turkmanlarning ananaviy turar joylari va undagi zamonaviy ozgarishlar. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 35(35).
21. To'rayev A. BUXORO TURKMANLARI BILAN BOG 'LIQ JOY NOMLARI TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 14. – №. 14.
22. To'Rayev A. I., Hayotov F. U. Buxoro vohasi aholisining islom dinini qabul qilishi //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 499-504.

23. To'Rayev A. I. BUXORO VOHASIDA YASHAB KELGAN TURKMANLAR HAYOTIDA CHORVACHILIKNING O'RNI //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 1. – C. 1165-1170.